Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

# XORIJIY SAYYOHLAR VA TADQIQOTCHILAR TALQINIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI SHAHARSOZLIK SIYOSATI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Azizbek Boxodir o'g'li Muminov*
*O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti tayanch doktoranti*
✉ amuminov337@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasida olib borgan shaharsozlik siyosati xorijiy sayyohlar va olimlar asarlari hamda zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Imperiya ma'muriyatining an'anaviy shaharlar yonida mutlaqo yangi me'moriy yechimga ega "Yangi shaharlar"ning barpo etishi ortidagi harbiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**

Turkiston, shaharsozlik siyosati, mustamlakachilik, "Eski shahar", "Yangi shahar", xorijiy sayyohlar, ajratish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743231

## Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olishi mintaqaning nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy va shaharsozlik qiyofasiga ham tub o'zgarishlar olib keldi. Imperiya ma'muriyati o'zining hukmronligini mustahkamlash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida an'anaviy mahalliy shaharlar yonida mutlaqo yangi me'moriy va rejalashtirish tamoyillariga asoslangan "Yangi shaharlar", ya'ni rus qishloqlari va ma'muriy markazlarini barpo etish siyosatini olib bordi. Natijada, Turkiston shaharlarida "Eski" (mahalliy) va "Yangi" (yevropacha) qismlardan iborat dualistik tuzilma shakllandi. Ushbu jarayonlar o'lkaga tashrif buyurgan xorijiy – ingliz, fransuz, nemis va amerikalik sayyohlar, diplomatlar hamda olimlar diqqat markazida bo'ldi. Ularning esdaliklari, yo'l xotiralari va ilmiy hisobotlari Rossiya mustamlakachilik shaharsozligining asl mohiyatini o'rganishda nodir manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada xorijiy kuzatuvchilarning asarlari asosida Turkistondagi "Eski" va "Yangi" shaharlar o'rtasidagi tafovutlar hamda imperiyaning hududni me'moriy rejalashtirishdagi yondashuvi tahlil qilinadi.

## Adabiyotlar sharhi.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi shaharsozlik siyosati va uning ijtimoiy oqibatlari o'zbek va xorijiy tarixshunosligida keng o'rganilgan. Akademik H. Ziyoyevning asarlarida mustamlaka davrida yer va mulk munosabatlarining o'zgarishi hamda aholi punktlarining harbiylashtirilishi chuqur tahlil qilingan bo'lsa [3:115], D.Alimova va N.Abdurahimovalarning tadqiqotlarida mustamlaka davlat apparati va ma'muriy boshqaruv tizimining mahalliy urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri ochib berilgan [2:84; 1:122]. Shuningdek, J. Ismoilova esa xorijiy sayyohlar asarlarining Turkiston tarixini yoritishdagi ahamiyatini ko'rsatib bergan [4: 36].

G'arb tarixshunosligida, xususan, Daniel Brauerning "Turkiston va Rossiya imperiyasining taqdiri" asarida Toshkentdagi rus va mahalliy shaharlar o'rtasidagi chegaralanish jarayoni "kolonial shahar" konsep-

siyasi doirasida o‘rganilgan [5:92]. Aleksandr Morrison esa Samarqanddagi rus boshqaruvi misolida yangi shaharlarning harbiy va iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilgan [6: 145]. Ushbu maqolada mazkur ilmiy yondashuvlarga tayangan holda, xorijlik kuzatuvchilarning asarlari orqali Turkistonda vujudga kelgan shaharsozlikdagi ikkiga bo‘linish masalasi tadqiq etiladi.

**Asosiy qism**

Turkistonda Rossiya hukmronligi o‘rnatilgach, ma’muriyatning shaharsozlikdagi asosiy maqsadi qulaylik yoki iqtisodiy rivojlanishdan ko‘ra, birinchi navbatda, xavfsizlik va imperiya qudratini namoyish etishga qaratildi [1:154]. Bu jarayonni kuzatgan fransuz etnografi Sharl Ujfalvi Toshkent shahrining strukturaviy bo‘linishini tahlil qilib, shahar bir-biridan qal’a orqali ajratilgan ikkita kvartaldan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, “Ruslar yashaydigan hudud juda puxta o‘ylangan reja asosida qurilgan bo‘lib, u Rus Turkistonidagi eng muhim shaharlardan biriga aylanish salohiyatiga ega bo‘lgan” [7: 15]. Sh.Ujfalvi qayd etgan mazkur qal’a tasodifiy me’moriy yechim emasdi; u ikki sivilizatsiyani ajratib turuvchi, mahalliy aholi isyonlarini bostirish va doimiy harbiy nazoratni ta’minlovchi mudofaa va ayirish vositasi funksiyasini bajargan [2: 90].

Amerikalik diplomat Yujin Skayler ham 1873-yildagi sayohati davomida bu bo‘linishni ochiq kuzatgan. U rus shahri qismida maktablar, xiyobonlar va to‘g‘ri ko‘chalar joylashganini hamda u yerga “sof ruscha havo” singganini qayd etadi. Shu bilan birga, karvonsaroylar, masjidlar va tor ko‘chalardan iborat bo‘lgan qismda “haqiqiy Buxoro, Xiva va Toshkent savdogarlarining hayoti” qaynashini, bu ikki olam bir-biridan keskin farq qilishini alohida ta’kidlaydi [8: 101]. Bu ta’rif, zamonaviy tarixchilar ta’kidlaganidek, rus ma’muriyati ongli ravishda qo‘llagan sun’iy ajratish siyosatining yaqqol isbotidir [1: 160].

Yangi shaharlarning me’moriy qiyofasi ko‘pincha sivilizatorlik missiyasining targ‘ibot quroli sifatda ham ishlatilgan. Fransuz sayyohi Anri Mozer rus Toshkenti unchalik katta bo‘lmasa-da, to‘liq “kichik bir Yevropa poytaxti ko‘rinishiga ega” ekanligini, u yerda mehmonxonalar, qandolatchilik do‘konlari, sartaroshxonalar mavjudligi hamda keng ko‘chalarda ikki otli faytonlar qatnashini yozadi [9: 24].

Biroq, bu tashqi hashamat xorijliklarning tanqidiy nigohidan chetda qolmagan. Mustamlakachilik dabdabasi ostidagi asl maqsadlarni ingliz tadqiqotchisi Annett Mikin juda to‘g‘ri ilg‘agan. Uning xulosasiga ko‘ra, “chiroyli rejalashtirilgan istirohat bog‘lari, ko‘rkam cherkov va yangi Rus-Xitoy bankining dabdabasi” aslida mintaqada imperiya obro‘sini saqlab qolish uchungina xizmat qilgan [10: 249]. Fransuz sayyohi Yug Kraft ham rus shaharlarida, xususan, harbiy gubernator qarorgohiga qarashli keng istirohat bog‘larini shunchaki Yevropa bog‘laridan nusxa olingan obyektlar sifatida baholaydi [11: 18]. Bu kabi sun’iy landshaftlar mahalliy aholi manfaatlari uchun emas, balki Yevropadan ko‘chib kelgan amaldorlar o‘zlarini begona muhitda his qilmasliklari uchun yaratilgan edi.

Dualistik shahar modeli nafaqat Toshkent, Samarqand, Andijon kabi yirik ma’muriy markazlar, balki Buxoro amirligi hududidan o‘tgan temir yo‘l bo‘ylarida ham o‘z ifodasini topgan. Stiven Grehem Buxorodagi holatni tasvirlar ekan, oq uylari, daraxtzor xiyobonlari, do‘konlari va keng ko‘chalari bor Yangi Buxoroga kelib, u yerdan “ayollari ko‘rinmasligi uchun derazasiz qurilgan uylar”, ko‘r ko‘chalarga ega Qadimgi Buxoroga o‘tganini yozadi [12: 34]. Temir yo‘l vokzallari atrofi faqat harbiylar va ko‘chmanchilar uylari bilan o‘ralib, ataylab mahalliy shahar markazlaridan uzoqroqda qurilgan [1: 215]. Bu rus qo‘shinlariga zaruriyat tug‘ilganda shahar iqtisodiyotini qamal qilish va vokzalni harbiy tayanch nuqtasi sifatida ishlatish imkonini bergan.

Keltirilgan manbalar va tarixiy xulosalarga tayanib aytish mumkinki, Turkistonda keng va ravon ko‘chalar xalqqa qulaylik yaratish uchun emas, balki qo‘zg‘olon vaqtida artilleriya o‘q otishi hamda qo‘shinlarning tezkor harakatlanishi uchun loyihalashtirilgan. Ikkinchidan, ma’muriyat imperiya xizmatchilari hamda oq tanli ko‘chib kelganlarni mahalliy aholining sanitariya, madaniy va ijtimoiy “xavf”laridan yakkalab qo‘yish siyosatini yuritgan [2: 103].

**Xulosa**

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonga tashrif buyurgan xorijiy tadqiqotchi va sayyohlar Rossiya imperiyasining shaharsozlik siyosatini shunchaki yangi inshootlar qurilishi emas, balki chuqur ijtimoiy-madaniy tafovutni keltirib chiqargan hodisa sifatida qabul qilishgan. Y.Skayler,

Sh.Ujfalvi, A Mikin kabi mualliflar o‘z asarlarida “Eski” va “Yangi” shaharlar o‘rtasidagi jismoniy hamda madaniy to‘siqlarni aniq tasvirlab berganlar. G‘arbiy Yevropa standarti asosida barpo etilgan keng xiyobonli shahar qismlari aslida imperializmning kuchini namoyish etuvchi, harbiy ustunlik va nazoratni saqlashga xizmat qiluvchi mexanizm edi. Xorijiy manbalar ushbu dualistik urbanizatsiyaning mahalliy an’anaviy hayot tarziga ta’sirini, o‘lkada ikki xil huquqiy va maishiy makon paydo bo‘lganini xolis tahlil qilish uchun bugungi kun akademik tadqiqotlarida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Абдураҳимова Н.А. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 476 б.
2. Алимова Д.А. Туркистон генерал-губернаторлиги: ижтимоий-сиёсий ва маданий муҳит. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008.
3. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия ҳукмронлиги даври. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.
4. Исмоилова Ж. Фарғона водийси тарихи хорижий сайёҳлар ва тадқиқотчилар асарларида (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 2005.
5. Brower, Daniel. Turkestan and the Fate of the Russian Empire. London: Routledge, 2003. – 236 p.
6. Morrison, Alexander. Russian Rule in Samarkand 1868-1910: A Comparison with British India. Oxford University Press, 2008. – 384 p.
7. Ujfalvy C. E. Le Syr-Daria, le Zérafchane, le pays des Sept-Rivières et la Sibérie-occidentale. – Paris: Ernest Leroux, 1879. – 208 p.
8. Schuyler E. Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. Vol. I. – London: Sampson Low, Marston, Searle & Rivington, 1876. – 411 p.
9. Moser H. A travers l’Asie Centrale. La Steppe Kirghize, Le Turkestan Russe, Boukhara, Khiva, Le Pays des Turcomans et La Perse. – Paris: Librairie Plon, 1885. – 463 p.
10. Meakin A. M. B. In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People. – London: George Allen, 1903. – 316 p.
11. Krafft H. A travers le Turkestan Russe. – Paris: Hachette, 1902. – 228 p.
12. Graham S. Through Russian Central Asia. – London: Cassell and Company, Ltd, 1916. – 280 p.